

**ZAMONAVIY FUTBOLDA TEXNIK TAKTIK XARAKATLAR TEZLIGIGA
TA'SIR ETUVCHI OMILLARNI O'RGANISH MASALASI**

Uraimov Shoxjaxon

Andijon davlat pedagogika instituti 1 bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada shug'ullanuvchilarning futbol bo'yicha texnik – taktik tayyorgarlik tomonlarini o'rganish muammolari va bunga yechimlar qayd etilgan. Bundan tashqari, zamonaviy futbolda texnik taktik xarakterlar tezligiga ta'sir etuvchi omillar taxlil qilindi.

Kalit so'zlar: futbol, jamoa, pedagogik prinsip, futbolda texnik va taktik xarakterlar, trenirovka, jismoniy tayyorgarlik, to'p, mashg'ulot, o'yin.

KIRISH

Bugungi kunda futbol dunyodagi eng ko'p o'ynaladigan va tomosha qilinadigan sport turi bo'lib, unda boshlang'ich ligalardan tortib professional ligalargacha bo'lgan barcha darajadagi millionlab muxlislar va o'yinchilar ishtirok etadi.

So'nggi yillarda xalqimizning salomatligi to'g'risida g'amxo'rlik qilish, ma'naviy va jismoniy barkamol avlodni shakllantirish, millionlar o'yini bo'lgan va mamlakatimizda alohida o'rin tutadigan sportning futbol turiga aholini, ayniqsa yoshlarni keng jalb etish bo'yicha bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda. Shu bilan birga, bugungi kunda mamlakatimizda yuqori iqtidorga ega bo'lgan yosh futbolchilarni tanlash, saralab olish (seleksiya) tizimi va futbol infratuzilmasini yanada rivojlantirish, futbol bo'yicha sport maktablari faoliyatini yangi bosqichga ko'tarish, soha mutaxassislarini tayyorlash va ularni moddiy rag'batlantirish tizimini yaxshilash, o'tkazilayotgan musobaqalar saviyasini yuksaltirish kabi masalalar dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning 4 dekabr 2019 yil 5887-sonli "O'zbekistonda futbolni rivojlantirishni mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" farmoni O'zbekistonda futbolni aholi o'rtasida eng ommaviy sport turiga aylantirish, yuqori iqtidorga ega bo'lgan yosh futbolchilarni tanlash, saralab olish va ularni professional sportchilar sifatida tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish, mamlakat futbolini rivojlangan mamlakatlar bilan raqobat qila oladigan darajaga yetkazish, xalqaro talab va standartlar asosida futbol bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash, futbol klublari faoliyatini rivojlantirish, terma jamoalar uchun o'quv-mashq jarayonini samarali tashkil etish, mamlakatimizda futbol bo'yicha yirik xalqaro musobaqalar, jumladan, o'smirlar, yoshlar va xotin-qizlar jamoalari o'rtasida jahon va qit'a birinchiliklarini o'tkazish va barcha futbolga oid masalalarni hal qilishga yo'naltirilgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Yosh futbolchilarning dastlab tayyorgarligi o'yin texnikasidani xatolarni tuzatish, texnik tayyorgarlikda muhim ahamiyatga ega, ayniqsa, bu narsa boshlovchi o'yinchilar uchun ahamiyatlidir. Texnikani yomon o'zlashtirish oxir oqibat mahoratni keyinchalik takomillashtirishga to'sqinlik qiladi. Futbol mutaxassislari futbolga endi kirib kelgan bolalarning texnik harakatlarni tarbiyalashda, to'pni his qilish qobiliyatini rivojlantirish, bunda to'p bilan oddiy mashqlar, to'pni olib yurish, to'pni tepish va jangyorlar qilishni, har mashg'ulotda olib borishni e'tirof etishadi. K.X.Xedergot, A.Chanadi xulosalariga ko'ra, hamma mashg'ulotlar turlari orasida yangi shug'ullanuvchilar uchun birinchi navbatda «sof» texnika buyicha o'tkaziladigan trenirovka muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlashadi. Texnika turidagi trenirovkalarni o'tkazish tezligi quyidagilarga bog'liq:

- yosh futbolchilarning yoshi;
- ularning tayyorgarlik darajasi;
- trenirovka davri;
- trenirovka sharoitlari.

Haftadagi mashg'ulotlar soni uch marta yoki undan ortiq bo'lgan va tegishli miqdorda to'plarga bo'lgan jamoalarda, mashg'ulot davridan qat'i nazar, haftadagi kamida bitta trenirovka «sof» texnika bo'yicha o'tkazilishi kerak. O'smirlar va o'spirinlik yoshidagi futbolchilar gavda tuzilishi hamda markaziy asab tizimi holati nuqtai nazardan, harakatlarni juda yaxshi egallab olish xususiyatiga ega. Yangi futbolchilar trenirovkalarida jismoniy va asab tizimiga tushadigan nagruzka o'yinchining texnika darajasiga mos bo'lishi mumkin. Haddan tashqari bo'lgan nagruzkalar zo'riqish yoki tezlik yaxshi o'zlashtirishga to'sqinlik qiladi, buning natijasida harakatlarda ma'lum bir xatolar mustahkamlanib qoladi. O'yin texnikasiga boshlang'ich o'rgatishda sharoitlarni yengillashtirish va tegishli uslublar bilan texnikani tez egallashda o'yinchilarga yordam ko'rsatish lozim. O'yinchilar bajariladigan texnika usullarini «tushunib yetganlaridan», texnika usullarini nisbatan mustahkamlab olganlaridan so'ng kelgusidagi o'rgatishda boshlang'ich davrda qo'llanilgan o'sha uslublardan foydalanmaslik zarur. O'rgatishdagi xatolik, bir tomondan qo'llaniladigan o'rgatish uslublaridan, ikkinchi tomondan shundan iboratki, texnikani egallash paytida futbolchilar ba'zan tegishli jismoniy tayyorgarlikka ega emaslar. Xatolikning tez-tez yuzaga kelishi yana shunga bog'liqki, o'yin texnikasi bo'yicha mashqlar ham jadallik bilan bajarilmaydi. Ko'pchilik futbolchilar, ularga hech kim halaqit qilmagan paytlarda, to'p bilan a'lo darajada o'ynaydilar, hattoki stirkcha tryuklarga ham qodir bo'ladilar, lekin o'yinda esa ularni tanib bo'lmaydi. Kuchli kurashish vaziyatlari futbol o'yini uchun xosdir. Yuqorida aytib o'tilganidek, gavda bilan kurash olib borishga futbol qoidalarida ruxsat beriladi. Bu o'yinda raqib tomondan faol qarshilik ko'rsatish vaziyatida texnika usullarini har vaqt va har erda

bajarish lozim demakdir. Shuning uchun yosh futbolchilarni bunday o'yinga tayyorlab borish juda muhimdir. O'yin texnikasiga o'rgatish va trenirovka uslublari o'yin mohiyatiga zid bo'lmasligi lozim, aksincha, texnikaga o'rgatishda o'yin talablarini har doim hisobga olish zarur. O'yin vaziyatlariga yaqinlashtirilgan va o'yinchilarning o'yindagi majburiyatlarini hisobga olib tanlangan mashqlar juda muhim bo'lib, trenirovka mashg'ulotlari o'quv materiallarining 50-60% ni tashkil etadi.

O'yin vaziyatlarining hayotiylikiga qaratilgan texnika buyicha mashqlar yuzaga keladigan o'yin holatlarining mukammal nusxasi hisoblanadi. Mashqlarning mohiyati: o'yindagiga yaqin tezlik va raqibning faol to'sqinlik qiluvchi faoliyati.

Mashqlarni o'rganish paytida raqibning faol harakat qilishi juda muhimdir. Agar o'yinchi raqibiga halaqit berayotgandek o'zini ko'rsatishga harakat qilsa, bu mashq foyda keltirmaydi.

Futbolchilarning ta'lim va mashg'ulot jarayonida quyidagi vazifalarni hal etish lozim:

* sportchilar organizmining (nafas olish, yurak-qon tomiri va boshqa sistemalar) funksional imkoniyatlarini kengaytirish;

* sportchining ishchanlik qobiliyatini saqlash va oshirish;

* sport sohasiga oid bilimni kengaytirish hamda gigiyena va o'z-o'zini nazorat qilish malakalarini hosil qilish;

* mehnatsevarlik, intizomlilik, onglilik, faollik xislatlarini tarbiyalashdan iborat.

Mashg'ulot jarayonida bu vazifalarni izchillik bilan hal qilish yuksak sport natijalariga erishish uchun inson organizmining g'oyat katta imkoniyatlaridan to'liqroq foydalanish imkonini beradi. Raqobatchi jamoalar mahorati darajasining uzluksiz o'sib borishi futbolchilar tayyorlashga bo'lgan talablarni yil sayin har tomonlama oshirib borish zaruratini tug'diradi. Futbolchilar tayyorlashga qo'yilayotgan yuksak talablarning to'la-to'kis bajarilishi mashg'ulotning pedagogik prinsiplarini izchil amalga oshirish va, birinchi navbatda, uning jarayonlarini ilmiy boshqarish qonuniyatlariga og'ishmay amal qilish yo'li bilan ta'minlanadi. Jismoniy mashqlar, gigiyenik omillar hamda tabiatning tabiiy kuchi futbolchi ta'lim va mashg'ulotining vositalari hisoblanadi. Malaka va ko'nikmalarni shakllantirish hamda takomillashtirish, asosan, jismoniy mashqlarni uzviy ravishda bajarib turish bilan bog'liqdir. Mashqlar xilma -xil bo'lib, ular ta'lim va mashg'ulot jarayonidan kelib chiqadigan vazifalarga qarab tanlanadi. Jismoniy mashqlar harakatni koordinatsiya qilishni yaxshilash, kuchni, tezkorlikni, chidamlilik va epchillikni oshirishga yordam beradi. Bunda yurak- qon tomiri, nafas olish va organizmning boshqa tizimlari faoliyati takomillashadi, natijada sportchining ishchanlik qobiliyati oshadi, yuklamadan keyingi tiklanish jarayoni tezlashadi. Har bir mashq u yoki bu sifat va malakalarga oz yoki ko'proq darajada ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ham jismoniy mashqlar ko'proq

ta'sir etishiga qarab tanlanadi. Futbolchilarning mashg'ulotida qo'llaniladigan hamma mashqlarni shartli ravishda uch guruhga bo'lish mumkin:

- 1) musobaqa mashqlari,
- 2) maxsus tayyorgarlik mashqlari,
- 3) umumiy tayyorgarlik mashqlari.

Musobaqa mashqlari yaxlit harakat faoliyatidan yoxud ularning majmuidan iborat. Bu harakat majmui esa futbolda o'yin predmeti va batamom futbol musobaqasi qoidalari asosida bajariladigan harakatlar yig'indisidan iboratdir. Bu harakatlar asosiy jismoniy xususiyatlar, vaziyat va harakat shakllari muttasil va kutilmaganda o'zgarib turgan bir sharoitda kompleks namoyon bo'lishi bilan ifodalaniladi va ular "syujetga" birlashgan turli harakat faoliyatlarining sharoitiga qarab ko'chma va o'zgaruvchanligi bilan ajralib turadi. Maxsus tayyorgarlik mashqlari musobaqa harakatlari elementlarini, ularning variantlarini, shuningdek, ish harakatning shakl va xarakter jihatidan bunga juda o'xshash xususiyatlar (o'yin harakatlari va kombinatsiyalari)ni o'z ichiga oladi. Maxsus tayyorgarlik mashqlari futbolda qat'iy ravishda o'yin xususiyatiga qarab aniqlanadi. Ayni paytda bu mashqlar o'yinda bir xil bo'lmaydi. Ular futbolchi uchun zarur bo'lgan xislat va malakalarni rivojlantirishga qaratilgan va differensial tarzda ta'sir etishni ta'minlay oladigan qilib tanlanadi. O'yin texnika va taktikasini takomillashtirish o'yinga yaqin mashqlar bilan amalga oshirilishi mumkin. Dars mashg'ulotlarida katta o'rinni aslida o'yin to'tadi. Texnikani mukammal egallash o'yinning taktik to'g'ri borishining yuqori talablari hisoblanadi. Ijodiy rivojlanishni, egiluvchanlikning taktik fikrlanishi, bir taktik sistemadan boshqa (o'yin) sistemasiga bema'lol o'tish qobiliyatini kuchaytirmoq muhimdir. qo'l to'pini o'rgatishda barcha bosqichda shaxsiyatni tarbiyalash o'qituvchi oldidagi muhim vazifalardandir.

11-12 yoshdagi bolalar. Bu yoshda bolalar yetarlicha aniq mo'ljal olish, harakatchanlik, chaqqonlik kabi harakatlarni aniq bajara olishadi. 11-12 yoshdagi bolalar o'zlarining jismoniy tayyorgarligini nafakat o'yinning texnika-taktikaviy o'quvlarida, balki o'yinning to'liq borishida ko'rsata oladilar. Yana shuni ta'kidlash kerakki, o'quv-mashg'ulotlarida doimiy ravishda maydonda tez va oson harakatlanish, barcha texnik harakatlarni ikki tomonlama va ikki qo'llab bajarishni tarbiyalash va rivojlantirish muhimdir. O'quvchilarni turli masofalarga to'p o'zatish, darvozaga to'p kiritish, maydondan to'g'ri joy tanlay ola bilish, raqib tomonidan uyushtirilgan xujumda raqib «oldini yopish» va unga qarshi xujumda «ochilish» kabilarni ham o'rgatish asosiy vazifadir.

12-15 yoshdagi bolalar. Bu yoshdagi bolalar bolalikdan o'smirlikka o'tish yoshida bo'lganliklari uchun bu bosqich ular uchun qiyin kechadi. Bu esa bevosita rivojlanishining fiziologik asoslariga bog'liqdir. O'tgan davr (9-12 yoshgacha bo'lgan oraliq) da o'quv mashg'ulotlar o'yin uslubida o'tkazilgan bo'lsa, endilikda esa mashg'ulotlar ko'proq analitika-sintetik usulida: mashq-o'yin-mashq qilib o'tkaziladi.

Jamoa taktikasini oddiy kombinatsiyalardan boshlash lozimdir. Mashg`ulot uch etapda o`tkazilishi shart.

- 1) o`yinchining yakka tartib harakat detallarini o`zlashtirish;
- 2) jamoadoshi bilan birga o`zaro munosabat;
- 3) kombinatsiyalar bajarishda. yakka tartib va jamoa harakatlarini birlashtirish.

Mashg`ulotlarda va o`yinda taktik harakatlarni mustahkamlash va o`zlashtirish.

XULOSA

Futbolning sport turi sifatida evolyutsiyasi yillar davomida madaniy, ijtimoiy va texnologik ta'sirlar bilan shakllanib, taktika, jihozlar va o'yinchilarni rivojlantirishda yangiliklarga olib keldi. O'yin-kulgi sifatidagi kamtarona boshlang'ichlardan tortib, ko'p milliard dollarlik sanoatga aylanishgacha, futbol butun dunyo bo'ylab odamlarning qalbi va ongini zabt etishda, jamoalarni birlashtirib, go'zal o'yinning universal tili orqali chegaralarni kesib o'tishda davom etmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. "O'zbekistonda futbolni rivojlantirishni mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-5887-sonli farmoni. 4-dekabr, 2019-yil.
2. A.I.Talipjanov "Futbol texnikasi" Toshkent 2010 y.
3. I.A. Koshbaxtiyev "Yosh futbolchilarni tayyorlashda texnik va taktik jarayonlarning roli va ahamiyati" Toshkent 2015 y.
4. R.A.Akramov "Zamonaviy futbol asoslari" Toshkent 2012 y.
5. Жавлонбек Абдуқохор ўғли Зулхайдаров. Футболчиларни тайёрлаш жараёнидаги мусобақалар фаолияти кўрсаткичларини тахлил қилишнинг ахамияти //Academic research in educational sciences (ARES) //volume 2, issue 10,2022. 764-770.
6. Suban Yu.V. Tizimda o'yin mashqlarini modellashtirish futbolchilarni sportni takomillashtirish bosqichida tayyorlash: Dis +. Kand ped fanlar. - M., 2003.
7. Shamardin A.M., Solopov IM., Ismoilov AM. Funktsional futbolchilarni tayyorlash: o'quv qo'llanma. - Volgograd: VGAFK. - 2000.
8. Shvykov I.A., Suchilin A.A., Andreev S.M., Builin Yu.F., Ismoilov A. M., Lapshin O.B. Futbol Bolalar va o'smirlar sport maktabining 1 va 2-sinf o'quvchilari uchun o'quv rejasi. - M.: Terra-Sport, 2000.